



Mechanisms of forming critical thinking in students

Mekhriniso AKABIROVA¹

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2024
Received in revised form
10 May 2024
Accepted 25 May 2024
Available online
25 June 2024

Keywords:

student and youth,
critical thinking,
critical analysis,
self-control,
formation,
development.

ABSTRACT

The article discusses measures to improve the quality of education in New Uzbekistan, with a focus on developing critical thinking, independent thinking, and creative skills in young students. The focus is on methods that promote deep enrichment of knowledge from an early age, which include stimulating the critical analysis of information and encouraging creative freedom in the educational process.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss1/S-pp626-630>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Talabalarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish mexanizmlari

Kalit so'zlar:

talaba va yoshlar,
tanqidiy fikrlash,
tanqidiy tahlil,
o'z-o'zini nazorat qilish,
shakllantirish,
rivojlantirish.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini yanada yaxshilash maqsadida talaba yoshlarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga, ularni yoshligidan bilimlarini boyitishga, mustaqil fikrlashini, erkin ijod qilishini yo'lga qo'yishga o'rgatish lozimligi haqida bayon qilingan.

Механизмы формирования критического мышления у студентов

Ключевые слова:

студент и молодежь,
критическое мышление,
критический анализ,
самоконтроль,
формирование,
развитие.

АННОТАЦИЯ

В статье обсуждаются меры по улучшению качества образования в Новом Узбекистане, с фокусом на развитии критического мышления, самостоятельного мышления и творческих навыков у молодых студентов. Основное внимание уделяется методам, способствующим глубокому обогащению знаний с ранних лет, которые включают стимулирование критического анализа информации и поощрение свободы творчества в образовательном процессе.

¹ Doctoral student, Samarkand State University named after Sharof Rashidov. E-mail: akabirovamehriniso@gmail.com

Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'ngi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. O'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning yangi mexanizmini ishlab chiqish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Yurtimiz rivojiga hissa qo'shish maqsadida Sharqona tarbiya mazmuni bilan yo'g'rilgan ta'lim muassasalarimizda tahsil olib, o'sib kelayotgan yosh avlodga Sharq namoyondalari bo'lmish Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sinolar ta'kidlaganlaridek mustaqil tanqidiy fikrlashga o'rgatish hamda buning natijasida o'zlashtirgan bilimlari jamiyat rivojlanishida katta afzallikga ega ekanligini uqtirish bugungi kun globallashuvi jarayonida muhim o'rin tutadi. Shunday ekan o'quvchilarda bu bilimlar to'liqroq va tezroq rivojlantirilganda e'tiqodga aylanadi va ularning tafakkuri hamda faol amaliy tanqidiy fikrlashi quroli hisoblanadi. Xususan bu borada yurtboshimiz ham quyidagi fikrlari orqali to'xtalib o'tadi: tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Tanqidiy fikrlash masalalarini tadqiq etish bilan ko'plab zamonaviy olimlar, pedagoglar, psixologlar va metodistlar shug'ullanadilar. Xususan, V.V. Davidov, M.G. Davletshin, I.Y. Lerner, A.M. Matyushkin, M.I. Mahmutov, S. Rajabov, D. Shodiyev, A.M. Umronxo'jayev ishlarida muammoli ta'lim tamoyillarida umumlashtirish turlari va ularning tuzilishi, o'quv jarayonini tashkil etish ochib beriladi. Shu o'rinda rus yozuvchisi Tolstoyning quyidagi fikrlarini bayon etamiz: "Donolik iloji boricha ko'p bilishda emas, balki qanday bilimlar eng zarur, qandaylari ozroq va yana qandaylari favqulotda zarurligini bilishdir". Sotsiolog va faylasuf G. Spenser esa: "Agar kishining bilimlari betartib holda bo'lsa, qanchalik u ko'proq bilimga ega bo'lgan sayin fikrlari shu qadar parokandalashib boradi", – deydi. Shuning uchun ham talaba yoshlar kelajakda yurtimizning yetuk kadrlari bo'lib yetishishlari uchun ularni yoshligidan tanqidiy fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish lozim.

Tanqidiy fikrlash o'zi nima?

Tanqidiy fikrlash – fikrlashning alohida turi bo'lib, faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qilinadi. Tanqidiy fikrlash bu – o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, o'zini o'zi nazorat qiladigan, o'zini o'zi to'g'rilaydigan fikrlash shaklidir. Uning zaruriy sharti ongni takomillashtirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va ularni hushyorlik bilan qo'llashdir. Tanqidiy fikrlash samarali muloqot va mammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni talab etadi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega inson mantiqan to'g'ri, yaxshi asoslangan mulohaza yuritish qobiliyatiga ega bo'ladi. Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida (grekcha) fikrlashning tanqidiy shakli sifatida yuritiladi hamda "tanqid", "baholash", "imtihon" (va boshqalar.) ko'p ma'noli so'zdan kelib chiqqan: bu yerda tanqid tushunchasi kundalik hayotda "ayblash" ma'nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma'nosini bildiradi va "baholash", "aniqlash", "hukm qilish", "ajratish qobiliyati" kabi ma'nolarga ega. Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari shuningdek, etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya'ni bundan 2500 yil avval Suqrotning o'qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmunni uchratish mumkin. Undan keyingi davrda Yaqin va O'rta Sharqda yashab ijod etgan o'rta asr mutafakkirlari tabiiy-ilmiy asarlarida ilmning turli tomonlari, uning prinsiplari, tuzilishi, me'zonlari, ilmning inson aqliy rivoji va tanqidiy fikrlashi bilan

bog'liqligiga jiddiy qiziqish borligini kuzatamiz. Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Fikrlash nazariyasi kurtagi fan paydo bo'lishi bilan yuzaga keldi uzluksiz rivojlanmoqda. Tanqidiy fikrlash mazmuni uchta tashqi omillar: ob'yekti, maqsadi, didaktik asoslar rivojlanishining qonuniyatlari orqali bog'lanadi. Tanqidiy fikrlashning tashqi tomoni deganda biz ancha sodda jarayonlarni rag'batlantirish va talabaning umumiy ish qobiliyatini saqlashni tushunamiz. Buning uchun quyidagi usullar xizmat qiladi:

Turli metodlar, turlar va o'quv ishlari usullarini navbatlashish yo'li bilan turli asab markazlari ishlarini almashtirishni ta'minlash;

O'quv jarayonida so'z va ko'rgazmalilik, aniq va mavhumiylikning to'g'ri o'zaro munosabati;

Darsda jismoniy va musiqiy dam olish daqiqalari;

Ijobiy hissiyotlarni qo'llab quvvatlash;

Didaktik usul sifatida o'yin va musobaqalarni qo'llash.

Tanqidiy fikrlashning ichki tomoni bu avvalambor talabalar fikrlashini faollashtirish, boshlang'ich guruhlarda esa ular tasavvuri va ijodkorligini rag'batlantirish hamdir. Tanqidiy fikrlashini shakllantirishning ichki tomoni maqsadlarida foydalanidigan asosiy usullar quyidagilar:

Talabalarning mustaqil ishi;

O'z-o'zini va o'zaro nazorat qilish elementlari;

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limiga muammoli yondashuv;

Ta'limning moslashuv tizimi elementlari va boshqalar.

Tanqidiy fikrlash Richard V. Pol tomonidan ikki to'liqinli harakat sifatida tasvirlangan (1994). Tanqidiy fikrlashning "birinchi to'liqini" ko'pincha "tanqidiy tahlil", tanqidni o'z ichiga olgan sof, oqilona fikrlash deb ataladi. Uning tafsilotlari unga murojaat qilganlar orasida farq qiladi. Barri K.Beyer (1995) fikriga ko'ra, tanqidiy fikrlash aniq, asosli hukm chiqarishni anglatadi. Tanqidiy fikrlash jarayonida g'oyalar isbotlanishi, to'liq ko'rib chiqilishi va baholanishi kerak. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bo'yicha AQSh Milliy kengashi tanqidiy fikrlashni quyidagicha ta'riflaydi: "kuzatish, tajriba, mulohaza yuritish, mulohazalar yoki muloqot orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni e'tiqod va harakatni boshqaradigan tushunchalarga faol va mohirona aylantirish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish yoki baholashning intellektual, ilg'or jarayoni sifatida aniqlanadi". Zamonaviy tanqidiy fikrlash olimlari ushbu an'anaviy ta'riflarni sifat, tushuncha va jarayonga kengaytirishga harakat qilishdi, jumladan ijodkorlik, tasavvur, izlanish, hayajon, empatiya, bilimlarni bog'lash, feministik nazariya, sub'ektivlik, noaniqlik va behudalik. Tanqidiy fikrlashning ba'zi ta'riflari bu sub'ektiv tajribalarni istisno qiladi. Ennisning fikriga ko'ra, "tanqidiy fikrlash – bu e'tiqod va harakatni boshqaradigan kuzatish, tajriba, fikrlash, o'rganish yoki assotsiatsiya orqali to'plangan yoki hosil qilingan ma'lumotlarni kontseptsiyalash, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholashning intellektual va intizomli jarayoni. Ennisning bu ta'rifi Xarvi Sigel, Piter Fazione va Deanna Kuhn tomonidan ilgari surilgan. Ennisning fikricha, tanqidiy fikrlash diqqat va miya faoliyatini talab qiladi. Agar tanqidiy fikrlash ta'lim sohasiga kiritilsa, bu usul o'quvchilarning miya faoliyatini oshiradi va matnlarni boshqacha tushunishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqariladigan vazifa ham emas. Tanqidiy fikrlashni o'rganish uchun inson hamma narsaga g'amxo'rlik qilishi kerak. Hayotda o'rganilmagan narsalar ko'p. Qiziqish aqlni rivojlantiradi. Qiziqish orqali kashfiyotlar, sarguzashtlar

sodir bo'ldi va buning natijasida kishining tanqidiy fikrlashi rivojlanadi, uning hayotini rang-barang qiladi. Bundan tashqari tanqidiy fikrlovchilarning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlari to'plami mavjud. Ular quyidagicha:

Talabalarga fikr yuritish uchun vaqt va imkoniyatlar yaratish;

Turli tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish;

Talabalarining o'quv jarayonida faolligini ta'minlash;

Talabalarni kulgiga qolmaslikka ishonitirish;

Har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga ishonch hissini uyg'otish;

Tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar o'ziga ishonchni orttirish va o'z fikri va g'oyalarning qadrini tushunish; o'quv jarayonida faol ishtirok etish; turli fikrlarni e'tibor bilan tinglash; o'z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turish lozim. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning birinchi bosqichi kundalik tahlildir. Oxir-oqibat, kun davomida erishilgan yutuqlarni tortish va o'rganish kerak. O'tkazib yuborilganlar sonini ham hisobga olish kerak. Tahlil bajarish jarayonida xatolarga yo'l qo'yilgan harakatlarni aniqlashdan iborat bo'lishi kerak. O'tgan kundagi kamchiliklarni aniqlab, ularni qanday yo'q qilish haqida o'ylashingiz kerak. Bu sodir bo'lgan voqea maqsadga yaqinlashdimi yoki undan uzoqlashdimi, xulosa qilish kerak. Ushbu oddiy harakatlar asosida tafakkur rivojlanadi, keyinchalik u tanqidiy fikrlashga aylanadi. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ikkinchi bosqichi fikrlash qobiliyatiga tanqidiy yondashish kerakligidir. Agar ular istalmagan oqibatlarga olib keladigan bo'lsa, ularni ko'rib chiqishga arziydi. Ijobiy fikrlashga harakat qiling va salbiy fikrlardan qoching. Chunki inson o'rganishi kerak: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaror qilgan kishi, xulosalar va kuzatishlar o'rtasida chegara chizishi kerak. Ma'lumotni tekshirmasdan bahslasha olmaysiz. Faqat aniq ma'lumotga ega bo'lsangiz, xulosa chiqarishingiz mumkin. Shu bilan birga, mashg'ulot paytida siz hazil tuyg'usi yo'qolmasligini ta'minlashingiz kerak. O'z-o'zidan hazil o'ynash va vaziyatlarda hazilni ko'rish qobiliyati aniq fikrni saqlashga va muammo bo'yicha o'z fikrini bema'lol ifoda etishga yordam beradi. Ammo agar kulgi psixologik himoya sifatida ishlatilsa, ehtiyot bo'lish kerak.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash bu ijodiy yoki intuitiv fikrlash emas, dalillarni yodda saqlash yoki g'oyalarni tushunish ham emas, balki yangi va tushunarli bo'lgan fikrlar va g'oyalarning tanlanishi, tekshirilishi, baholanishi, rivojlantirilishi va tatbig'idir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirgandan so'ng, inson o'z xulosalarini to'g'rilab, bir yo'nalishda o'ylay boshlaydi. Boshqa tomondan, tanqidiy fikrlash insonga Shaxs bo'lib qolishiga, ya'ni jamoatchilik fikrini boshqarishning yaxshi yo'lga qo'yilgan tizimi provokatsiyalariga berilmaslikka imkon beradi. Tanqid har qanday faoliyat sohasiga tegishli. Aslida, atrof-muhitga bunday munosabat ko'pincha salbiy xarakterga ega. Ammo tanqidiy deb ataladigan fikrlash turi mavjud bo'lib, u ko'rib chiqilayotgan mavzularning yomon tomonlarini topishni maqsad qilmaydi. Aqliy faoliyatning bu qismi idrok etish uchun mo'ljallangan yuqori daraja voqelikni tushunish va unga xolisona munosabatda bo'lish. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi ham mavjud. Uning mohiyati shundaki, har bir kishi olingan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini baholay oladi va uni talqin qilish, xulosalarni asoslash bo'yicha tahliliy qarashlar tizimini shakllantirishi mumkin. Tanqidiy fikrlashning asoslari orqali o'qituvchi talabalarining fikrlashini faollashtiradi, ta'lim maqsadini aniqlaydi, faollikka undaydi va munozaralar yaratadi,

ta'lim olishga talabalarda qiziqish uyg'otadi, talabalardagi yutuq va o'zgarishlarni rag'batlantiradi, talabalarga turli xil fikrlarni bayon qilishni va ularni tinglashga imkoniyat beradi, o'zlarini namoyon etishni va axborotlarni qayta ishlashni ta'minlashga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar.
2. Беспалко В.П Педагогика и прогрессивные технологии обучения, М., "Педагогика", 1995. 223 бет.
3. Фарберман Б.Л. Прогрессивные педагогические технологии.-Т.,1999. 165 бет.
4. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining "Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari" fanlararo dasturi. T. 2004.
5. Nishonov A, Xaydarov B, Nuriddinov B. va boshqalar. Baholash metodlari. O'quv metodik qo'llanma. T., 2003. 190 bet.